

O‘ZBEK TILIDAGI KO‘CHMA MA’NOLI SO‘ZLARNI FRANSUZ TILIGA TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI

Kuvondikova Gavhar Isomiddinovna

O‘zMU O‘zbek filologiyasi fakulteti Kompyuter lingvistikasi
amaliy tilshunoslik kafedrası o‘qituvchisi

To‘rayeva Shahina

O‘zMU Xorijiy filologiya fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ko‘chma ma’no tushunchasi haqida fikr yuritilib, so‘zlarning ko‘chish usullari yoritib berilgan. So‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi har bir tilga xosligi inobatga olinib, ko‘chma ma’noli so‘zlarni fransuz tiliga tarjima masalasiga alohida to‘xtalgan va tarjima jarayonida bir nech ausullar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ko‘chma ma’no, metafora, metonimiya, uslubiyat, badiiy tarjima, birikma.

ABSTRACT

This article discusses the concept of portable meaning and explains how words move. Taking into account the peculiarities of the use of words in the figurative sense of each language, the issue of translating words with a figurative meaning into French was discussed separately, and several methods were considered in the process of translation.

Keywords: figurative meaning, metaphor, metonymy, methodology, literary translation, combination.

So‘nggi yillarda fransuz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish bilan bir qatorda o‘zbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilishga alohida e’tibor berila boshlandi. Bu o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi hamda tilga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi, shuningdek, bevosita tarjimaga katta ahamiyat berilishi bilan izohlanadi.

Tilshunoslikda so‘zlarning ko‘chma ma’nosi uning leksikologiya va stilistika bo‘limlarida fanning maxsus ob’yekti sifatida o‘rganiladi. O‘z ma’nosiga ega bo‘lgan so‘zlarni tarjima qilish muayyan muommolar yaratadi. Agar bu muommolar sirasiga ko‘chma ma’noli so‘zlarni tarjima qilishni kiritsak, ularni tarjima qo‘lishdagi qiyinchiliklar darajasi bir necha marta ortib ketadi.

Ko'chma ma'noli so'zlarni tarjima qilish masalasiga to'xtalishdan oldin "ko'chma ma'no" tushunchasi nimani anglatishi va uning turlari haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tahlilga tortilgan ko'chma ma'no tushunchasi tilshunoslikda keng qo'llaniladigan til hodisasi hisoblanadi. Leksikologiyada so'zlarning ko'chma ma'nosi semantik o'zgarishlar munosabati bilan o'rganiladi. So'zlarning assosativ munosabatlarga asoslangan va ko'chma ma'noda qo'llanadigan so'zlar sirasiga metofora va metonimiya kiradi kiradi. Stilistikada esa bunday so'zlar sirasiga metofora, metonimiya, sinekdoxa va funksional ko'chish kiradi. Bunday so'zlarning kontekstda lug'atda qayd etilmagan qo'shimcha leksik ma'noga ega bo'lishi, ya'ni kontekstual ma'nolari hisobga olinadi. So'zning kontekstual ma'nosi uning lug'aviy ma'nosidan shunchalik uzoqlashib ketadiki, natijada u so'zning birinchi ma'nosiga butunlay zid keladigan ma'noga ega bo'lishi mumkin. Ayni mana shu holatda biz so'zning ko'chma ma'nosiga duch kelamiz.

Ko'chma ma'noda qo'llangan so'z ko'pincha boshqa "semantik maydon" ga o'tadi. Ko'p ma'noli so'zlarning har bir ma'nosi boshqa so'zlarning ma'nolari bilan aloqaga chiqadi. So'zlar bir-biriga o'xshashligi, yaqinligi va nutq vaziyatida (kontekstda) ishlatilishiga ko'ra ma'nolarini o'zgartirishi mumkin. So'zning ko'chma ma'nolarda ishlatilishi barcha tillar uchun xosdir. So'z ma'nosining ko'chish usuli to'rt xil bo'ladi: metofora, metonimiya, sinekdoxa, funksional ko'chish.

Ko'chma ma'no ikki leksik ma'noning, ya'ni so'zning lug'aviy va kontekstual ma'nolarining o'zaro munosabatlari natijasida paydo bo'ladigan hodisa hisoblanadi. So'zlar turli xil ma'nolarga ega bo'ladi. O'zbek tili leksikasida ekspressiv-emotsional rangdorlik bilan bogliq bo'lgan so'zlar ko'p. So'zlarning ekspressiv-emotsional ma'no xususiyatida kontekstda reallashadi. Kontekstual ma'no muayyan darajada so'zning lug'aviy ma'nosiga asoslanadi. So'zning bu ma'nolarining o'rtasidagi aloqaning uzoqlashishi so'zning mantiqiy ma'nosidagi o'zgarishga ham sabab bo'lishi mumkin. So'z ma'nosining bu tariqa o'zgarishi stilistik usulning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, ya'ni so'z stilistik ma'noga ega bo'lishi uchun uning ikkita ma'nosi bir paytning o'zida o'zaro munosabatda bo'lishini taqazo etadi. So'zlarning ko'chma ma'nolari yozma yoki og'zaki nutqda qanchalik ko'p qo'llansa, ular shunchalik ma'lum bo'ladi va ular lug'atlarga kiritiladi. Lug'atlarda qayd etilgan ko'chma ma'noga asoslangan so'zlar til boyligiga aylanadi, biroq ularning nutqda qayta-qayta ishlatilishi ularning ma'nolarini sayqallanishiga olib keladi va ular yorqin va ifodali leksik stilistik usullari siarsidan chiqib, oddiy so'zlarga aylanib qolishi mumkin. Ikkinchi turdagi ko'chma ma'noga asoslangan leksik stilistik usullar birinchidan, birinchidan, lug'atda qayd etilmaganligidan, ikkinchidan faqat muayyan mualliflar asarlarida, tilida qo'llanishi bois ular ifodali, ekspressiv va yorqin stilistik usul sifatida qabul qilinadi. Ko'chma ma'noli so'zlarni o'zbek tilidan fransuz tiliga tarjima qilish

haqida gap borganda, o'zbek tili ko'chma ma'noli so'zlarga boyligini alohida qayd etish lozim. Ko'chma ma'noli so'zlarning yuqorida tilga olib o'tilgan turlarini va ularning o'ziga xos xususiyatlarini hamda vazifalarini hisobga olish bunday so'zlarni tarjima qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

So'zlarning ko'chma ma'nosi asosan badiiy tarjima hamda publisistikada keng qo'llaniladi. Badiiy asarlardagi ko'chma ma'noli so'zlarni, amaliyotning ko'rsatishicha, tarjima qilishning bir necha usuli mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

- Asliyatdagi ko'chma ma'noli so'zni tarjimada ko'chma ma'noli so'z bilan berish;

- Asliyatdagi ko'chma ma'noli so'zni tarjimada ko'chma ma'noga ega bo'lmagan so'z bilan berish;

- Asliyatdagi ko'chma ma'noli so'zni tarjiamda so'z birikmasi bilan berish;

- Asliyatdagi ko'chma ma'noli so'zni tarjimada frezeologik birikma bilan berish (bunda frazeologik birikmani tashkil etuvchi so'zlardan biri yoki hammasi ko'chma ma'noda qo'llanishi mumkin);

- Asliyatdagi ko'chma ma'noli so'zni tarjimada ekvivalenti bilan berish;

Endi misollarga murojaat qilamiz. O'zbek tilida yuqorida aytib o'tkanimizdek, deyarli har bir so'zni ko'chma ma'noda qo'llash imkoniyati mavjud. Masalan, o'zbek tilidagi ko'chma ma'noga ega bo'lgan quyidagi leksik birlikning tarjimasini ko'rib chiqsak.

O'zbek tilidagi "U mening ko'zimning oq-u qorasi" gapida "oq-u qora" birikmasi ko'chma ma'noda qo'llanilgan, chunki birikmadagi har bir so'z o'z ma'nosida faqat muayyan, ya'ni "oq" va "qora" ranglarni ifodalaydi.

Yuqoridagi gapni fransuz tiliga so'zma-so'z tarjima qilsak, gapning ma'nosi buziladi va gap tarjimasi g'aliz bo'ladi. Mavjud o'zbekcha- inglizcha lug'atda "oq" so'zining "blanc" "qora" so'zining "noir" ma'nolarini topamiz. Fransuz tilida mazkur ranglar ko'chma ma'noda qo'llanadi, biroq ularning ma'nosi o'zbek tilidagi "oq-u qorasi" birikmasining mazmunini bermaydi. Tajribadan ma'lumki, o'zbek tilidagi "ko'zimning oq-u qorasi" fransuz tilida "La lumière de mes yeux." iborasi bilan tog'ri keladi. Bu iborani o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilsak, "Ko'zlardagi yorug'lik" iborasi paydo bo'ladi. Bunday ibora o'zbek tiliga xos bo'lgan "ko'zining oq-u qorasi" birikmasiga ekvivalent bo'lolmaydi.

Shuning uchun o'zbek tilidagi "ko'zimning oq-u qorasi" iborasini fransuz tiliga

"La lumière de mes yeux." deb tarjima qilish uslubga, gapning mazmuniga va o'zbekcha iboraning ekvivalentiga to'g'ri keladi. Bu yerda har bir tilning o'ziga xos xususiyati yaqqol ko'rinib turibdi. O'zbeklar uchun ko'zning oqligi va qoraligi muhim bo'lsa, fransuz uchun uning olmaga o'xshab dumaloqligi alohida ahamiyatga ega

hisoblanadi. Soʻzlarning koʻchma maʼnoda qoʻllanilishi universal harakterga ega boʻlishi bilan bir qatorda uning qoʻllanishi oʻziga xos xususiyatga ega boʻlishi mumkin.

Keyingi misoldagi leksik birlikni tahlil qilaylik. “Maqolaning koʻpigi koʻp”. Mazkur gapda tarjimon eʼtiborini tartadigan va koʻchma maʼnoda qoʻllangan soʻz “koʻpik” dir. Bu gapdagi “koʻpik ” soʻzini fransuz tiliga toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima qilish soʻz ,maʼnosini toʻliq berish imkonini bermaydi, chunki ushbu soʻz oʻz maʼnosiga ega emas, balki koʻchma maʼnoda qoʻllangan. Buni fransuz tiliga tarjima qilgan gapimizni oʻzbek tiliga , yaʼni teskari tarjima orqali aniqlashimiz mumkin. Il y a beaucoup de mousse dans l’article yoki Il y a l’article contenir beaucoup mousse. Oʻzbekcha gapning ikkalasida ham “koʻpik” soʻzining tarjimasini talabga javob bermaydi.

Demak fransuz tilida oʻzbek tilidagi koʻchma maʼnoda qoʻllangan “koʻpik” soʻzining ekvivalentini topish lozim. Fransuz tilida bu maʼnoda “eau” soʻzi oʻzbek tilidagi “koʻpik” soʻziga mos keladi. Shunday qilib, oʻzbek tilidagi gapni fransuz tiliga quyidagicha tarjima qilish maqsadga muvofiq boʻladi: “The article contains much eau”.

Tarjimada soʻzlarning turli xususiyatlari inobatga olinishi lozim va soʻzlar koʻchma maʼnolarining berilishi matn mazmunining toʻgʻri berilishi hamda tarjima sifatining yuqori boʻlishini taʼminlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI: (REFERENCES)

1. Abdurakhmonova N. The bases of automatic morphological analysis for machine translation. Izvestiya Kyrgyzskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta. 2016;2 (38):12-7. B-52
2. Abdurakhmonova N, Tuliyeu U. Morphological analysis by finite state transducer for Uzbek-English machine translation/Foreign Philology: Language. Literature, Education. 2018(3):68. B-177.
3. Begmatov E.A. Hozirgi oʻzbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent: Fan 1985. B-98.
4. Galperin I.R. stylistics. Moscow: High School, 2003. B-197.